

# "O`zkimyosanoat" Ajda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida davra suhbatini bo'lib o'tdi

// 20.07.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/fvv-davra-suhbati>



"O`zkimyosanoat" Ajda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida, Favqulodda vaziyatlar vazirligi vakillari ishtirokida davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda soha mutaxassislari tomonidan yong'in xavfsizligini ta'minlash yuzasidan muhim ma'lumotlar taqdim etildi.

## "Dolzarb 30 kun" tadbiri orqali:

Hamyurtlarimizning yong'in xavfsizligini ta'minlash masalasiga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish, fuqarolarda shaxsiy mulkini yong'indan asrash bo'yicha immunitet hosil qilish, har bir fuqaroga yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha boshlang'ich bilimlarni singdirish, har bir fuqaroni o't o'chirishning birlamchi vositalaridan foydalana olishga o'rgatish hamda iqtisodiy ahamiyatga ega va favqulodda vaziyat yuz berish darajasi yuqori bo'lgan, shuningdek, odamlar ommaviy bo'ladigan obyektlarning yong'in xavfsizligini talab darajasiga keltirishga erishish maqsad qilingan.







